

Boshlang'ich ta'limda bolalarni ijtimoiy tushunchalarini shakllantirish

Biz bilamizki, bola tarbiyasi juda murakkab jarayon. Bu jarayonda ozroq e'tiborsizlik yoki mas'ulliyatsizlikka yo'l qo'yish kelajakda juda katta kamchiliklarni keltirib chiqaradiki, keyinchalik bu kamchiliklarni to'ldirish yoki to'g'rilash mumkin bo'lmaydi.

Yurt kelajagi hisoblanmish yosh avlod komil, dono, sog'lom va albatta ijtimoiy shakllanganligi yuqori darajada bo'lishi talab etiladi.

Ijtimoiy pedagogik faoliyat –bolalarni ijtimoiylashtirish, ularga xalqning ijtimoiy-madaniy tajribalarini singdirish orqali, jamiyat hayotiga tayyorlashga yo'naltirilgan faoliyatdir.

Ijtimoiy tarbiya – ta'lim oluvchilarning ijtimoiy ahamiyatga molik fazilatlar va tajribalarni shakllantirish jarayoni.

Ijtimoiy ta'lim – shaxsning ijtimoiylashuviga yordam beruvchi bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish jarayoni.

Ijtimoiylashtirish – 1) Inson tomonidan jamiyatda muayyan vaqt oralig'ida qadriyatlar, axloqiy me'yor, namuna va ko'rsatmalarning o'zlashtirilishi;

Ijtimoiylashuv-inson tomonidan ijtimoiy hayot tajribasini o'zlashtirish bilan bog'liq ko'p qirrali jarayon bo'lib,uning natijasida individ shaxsga aylanadi- ya'ni odamlar orasida yashash uchun zarur bo'lgan bilim,ko'nikma va malakalarni o'zlashtiradi hamda o'zgalar bilan muloqot va hamkorlik qilishni o'rganadi.Ijtimoiylashuvning asosiy manbalariga oila,maktabgacha ta'lim muassasasi,maktab mahalla ,ommaviy axborot bositalari,ta'lim tizimini kiritish mumkin.Shuni qayd qilish lozimki,ijtimoiylashuv asosan insonlarning bir- biri bilan muloqoti orqali amalga oshadi.

Shaxsning turli ijtimoiy umumiylik (guruh, ijtimoiy institut, ijtimoiy tashkilot), ijtimoiy munosabatlar tizimiga integratsiyalashuvi. Shaxsning ijtimoiy o'z-o'zini aniqlashidan kelib chiqib, ijtimoiy munosabatlar umumiy tizimida o'z o'rnini va nuqtai nazarini.

Boshlang'ich ta'limda bolalarni ijtimoiy tushunchalarini shakllantirish

Bolalarda ijtimoiy tushunchalarining yuqori darajada shakllanishi, muomala, muloqot madaniyatini o'sganligini ko'rsatadi. Bu esa umumiy ta'lim maktablarida, tengdoshlari orasida, turli tanish yoki notanish jamoada bo'lganda, ishda o'z maqsadlarini amalga oshirishda muvaffaqiyat garovi bo'lib qoladi. Chunki bunday bolalar o'z jamoasini boshqarishi, o'z fikrini tushuntira olishi, o'z ortidan ergashtira olishi, muvaffaqiyatli, muvaffaqiyatsizlikka uchragan holatlarda hamdard bo'la olishi, bunday vaziyatlardan o'z jamoasini chiqara olish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Mavzu: “Ota rozi – Vatan rozi” she’ri. Eson Rahimov

Maqsad: Ijtimoiy tushunchalarni rivojlantirish.

Oila, el, Vatan, yaxshi farzand haqida tushunchalarini kengaytirish.

1) 1,2,3 sonlarini ketma-ket aytish orqali kichik guruhlariga bo'linishi.

2) Kichik guruhlarda yaxshi farzand, Vatan, Ota haqida tushunchalarini aniqlash uchun tayyorlangan plakat asosida Klaster tuzish. Shu berilgan javoblar soniga ko'ra guruhlarini rag'batlantirish.

- 3) She'ni ifodali o'qib berish va mazmunini tushuntirish.
- 4) She'ni guruhlarga navbat bilan o'qitish.
- 5) Sizlar yaxshi farzand bo'lish uchun ya'ni sizlardan Ota ham Vatan ham rozi bo'lishi uchun nimalar qilmoqchisizlar? savoliga javob olish.

6) Darsda ishtirokiga ko'ra ayrimlarni rag'batlantirish.

7) **Vazifa berish.**

Mavzu: "Meniki va bizniki" .

Maqsad: O'quvchilarda mulk va uning turlari, mulk egasi bo'lish, uni asrash, undan foydalanish haqida tushunchalar hosil qilish. O'quvchilarning ijtimoiy tushunchalarini shakllantirish.

Dars jihozi: kartochkalar, oq qog'oz, markerlar, rasmlar.

Dars metodi: Ko'rsatish, tushuntirish, savol –javov, kichik guruhlarda ishlash.

Darsning borishi: 1) Tashkiliy qism.

2) Kasblar haqida o'tilgan darsda o'rganilgan bilimlarni aniqlash maqsadida "Aqliy hujum" usulida trening o'tkazish. Quyidagi tartibda o'qituvchi tomonidan savollar tayyorlanib kelinadi.

- bolalarni o'qish ,yozishga o'rgatadi, maktabda dars beradi –o'qituvchi;
- do'konlarda o'tiradi ,turli buyumlar sotadi –sotuvchi;
- mevalarni yetkazib beradi, daraxtlarni parvarish qiladi ,ostiradi- bog'bon;
- kattalar, bolalar, erkaklar va ayollarning sochlarini tartibga keltiradi, turmaklaydi ,hamma mahalla va ko'chalarda ishxonalari joylashgan –sartarosh;
- uyalar, maktablar, teatr va turli binolar quradi –quruvchi.

Bugun baholanishi kerak bo'lgan o'quvchilar dars taxta yoniga chaqiriladi safga tizilib bu savollar navbati bilan yuqoridagi kasblar haqidagi ta'riflar o'qilib javoblari shu o'quvchilardan navbati bilan so'raladi .1 daqiqada javob so'zni ayta olsa joyida turadi aks holda safdan chiqadi. Savollar tugagach goliblar rag'batlantiriladi. Savollar 1-sinf o'quvchisi yashayotgan muhitga mos,og'ir bo'lmagan holatda tuzilishi kerak.

3) **Yangi dars mavzuini e'lon qilish.**

4) Darslikdagi rasmlir va berilgan faollashtiruvchi savollardan foydalanib suhbatlashish.

5) Matn mazmunini tushuntirish.

6) Konstitutsiyamizda "Har kim mulk egasi bo'lishga haqli" deb yozilgan stendni dars taxtaga osish va mazmunini tushuntirish.

7) Topshiriq asosida rasmdan kimga nima tegishliligini topish va daftarga yozish; it- uycha, o'quvchi- daftar- qalam, ayiq-asal, duradgor- arra- taxta.

8) Takrorlash uchun darslikdagi berilgan savol –javoblar ustida ishlash orqali bolalarda bilim, ko'nikma, malakalarini mustahkamlash.

Dars yakunida bolalar qanday BKMLarga ega bo'lishlari kerak:

- o'z mulki nimalardan iborat ,ulardan foydalanish tartiblari, ularni asrash,lozim bo'lganda himoya qila olishi kerakligi haqida
- o'zining har bir a'zosiga tegishli bo'lgan narsalarni farqlay olishlari va ularga ham to'g'ri munosabatda bo'lish malakasini egallagan bo'lishlari
- oiladagi narsalarni hamma uchun tegishli bo'lganlarini farqlay olishlari

- oila mulki nimalar ekanligi, undan oilaning barcha aʼzolari toʻgʻri foydalanishlari, uni asrab avaylashlari agar telerfon ,muzlatgich va hokazolar buzilsa oiladagilar uchun qanchalik qiyinchiliklar, ortiqcha sarf xarajatlarga olib kelishini tushuna bilish
- davlat mulki nimalar ,ular nima uchun kerakligi ,maktab, kasalxona, transportlar, muzeylar, dala, bogʻlar va hokazolar insonlar uchun ,ularning farovonligi uchun xizmat qilayotgani shuning uchun ularni hamma ehtiyot qilish kerakligini tushunsinlar
- Mulkka notoʻgʻri munosabatda boʻlayotganiarni koʻrsa ularga oʻz fikrlarini tushuntira olish ularni xatolarini toʻgʻrilashga tezda kirishish ,boshqalarni ham shunga chaqirish,undash malakasini hosil qila olish kerak.

Bolalarni ijtimoiy tushunchalarni rivojlantirishda jismoniy tarbiya darslarida turli guruhliy oʻyinlardan foydalansa boʻladi.Masalan: “Bayroqni olib qoch” oʻyinida faqat chaqqonlik ,ziyraklik talab etilmasdan balki oʻz guruhi gʻolib boʻlishi uchun harakat qilish , qarshi guruh holatini tahlil qila olishi va qulay vaziyatni anglab topib undan foydalana olishi kabi hislatlarni shakllantirish ham nazarda tutilishi ,ana shunday fikrlash oʻrgatib borilishi darkor.Shu bilan bolada oʻziga ishonch ortib boradi , oʻrtoqlari , tengdoshlarini himoya eta olishiga ishonadi.

Mehnat darslarida turli oʻyinchoqlar yasash va xonani,zalni bezash, biror tadbirda,tanlovda ishtirok etish,jamoasni gʻolib boʻlishida oʻz hissasini qoʻsha qoʻsha olishiga har bir bola urinishi uqdiriladi.

Oʻqish 4-sinf

“Maʼnaviyat-qalb quyoshi” boʻlimi.

Mavzu: Salomlashish odobi. Husayn Voiz Koshifiy

Maqsad: Bolalarni Husayn Voiz Koshifiyning “Salomlashish odobi” asari orqali ijtimoiy tushunchalarini rivojlantirish.Oʻquvchilarni oʻzbekona salomlashish qoidalari bilan tanishtirish va unga rioya qilishga odatlantirish.

Dars turi: Yangi bilim beruvchi, noanʼanaviy.

Darsning borishi: Tashkiliy qismni oʻtkazish.

Oʻtilgan dars “Yoʻlakdagi uchrashuv” usuli bilan soʻraladi. Bunda sinfning barcha oʻquvchilari ikki qator boʻlib saflanadilar. Oʻqituvchining topshirigʻiga koʻra birinchi qatordagilar ikkinchi qatordagilarga bittadan savol beradilar, ikkinchi qatordagilar shu savolga javob beradilar. Keyin savollarga javob berayotgan guruh aʼzolari keyingi oʻquvchi toʻgʻrisiga oʻtib turadilar. Shu tariqa davom etaveradi. Savollar ham, javoblar ham mayin ovozda beriladi, chunki yon atrofdagi oʻquvchilarga xalaqit bermasligi kerak. Oʻqituvchi esa savol-javoblarni kuzatib boradi va baholaydi. Bu usulning samarali tomoni shundaki maʼlum bir sabablarga koʻra darsda qatnashmagan oʻquvchi oʻtilgan mavzuni 100% bolmasa ham 75-80% oʻzlashtirib oladi. Sababi boshlangʻich sinf mavzulari qisqaroq, soddaroq, kichik hajmda berilgani uchun savollar ham, javoblar ham bir necha marta takrorlanishi mumkin.

Yangi dars bayoni:

Mavzu: Salomlashish odobi.

Stol ustida oldindan bolalar soniga mos holda soʻzlar yozilgan qogʻozchalar qoʻyiladi. Qogʻozchalarga “Assalomu alaykum”, “Tashakkur”, “Rahmat”, “Marhamat” degan soʻzlar yozilgan boʻladi. Bolalarga stol ustidagi qogʻozchalardan bittadan olishlari, qogʻozchalarda nima yozilganini sir tutishlari aytiladi. Hamma oʻquvchilar qogʻozchalardan olib boʻlgach, yozuvlarga mos, ovozsiz harakat qilib oʻz sheriklarini topishlari aytiladi. Masalan: “Assalomu alaykum” soʻzi yozilgan qogʻoz olgan oʻquvchilar oʻrnilaridan turib, qoʻllarini koʻksilariga qoʻyib, boshlarini sal egib, yuzlarida nim tabassum bilan harakat qilib sheriklarini topadilar. “Tashakkur” yozuvli qogʻozcha olgan oʻquvchilar esa ikkala qoʻllarini ham koʻksilariga qoʻyib, sal boshni egib, tabassum bilan harakat qilib sheriklarini topadilar. “Marhamat” yozuvli qogʻozcha olgan oʻquvchilar bir qoʻllarini koʻksilariga qoʻyib, bir qoʻllarini yonga uzatib harakat qilib sheriklarini topadilar.

“Marhamat” yozuvli qogʻozcha olganlar oʻng qoʻllarini uzatib, chap qoʻllarini koʻksilariga qoʻyib harakat qiladilar.

“Rahmat” soʻzi yozuvchi qogʻozcha olganlar “O, rahmat, rahmat” degandagi holatlarni bajaradilar. Shu tariqa guruhlar boʻlinadi va oʻzlari uchun ajratilgan joylarga oʻtirishib, marker bilan guruh nomlarini koʻrinarli tarzda yozib qoʻyadilar va guruh nomidan kelib chiqib kichik sahna koʻrinishlari tayyorlaydilar. Koʻrinishlar oʻqituvchi tomonidan xulosalanib, baholanadi. Soʻngra darslikning 31- betini ochishlari va Husayn Voiz Koshifiyning “Salomlashish odobi” nomli matnini diqqat bilan ifodali oʻqib chiqish aytiladi.

Bolalar matnni oʻqib tugagatlaridan soʻng, matn mazmuni haqida guruhlar oʻrtasida nusobaqa uyushtiriladi. Guruhlar navbati bilan, bir-birlarini takrorlamagan holda oʻz fikr-mulohazalarini hayotlarida koʻrganlari bilan taqqoslab bayon qilib boradilar. Masalan: “Assalomu alaykum” guruhi qay hollarda qanday salomlashish haqida gapiradi, “Marhamat” guruhi ular javoblarini toʻldiradilar. “Tashakkur” guruhiga qay hollarda salomlashmaslik haqidagi savollar berilsa, “Rahmat” guruhiga ular eʼtiboridan chetda qolgan maʼlumotlarni aytish vazifasi topshiriladi. Bolalarga shunday imkoniyat berish kerakki, xohlasalar guruhning maʼlum bir aʼzolari amalda koʻrsatib, boshqa aʼzosi taʼriflab tursin. Shu oʻrinda sheʼr, maqollardan ham foydalanishlariga imkon berilsa boʻladi. Bolalar fikr-mulohazalari, javoblari tinglanib oʻqituvchi maʼlumotlarni boyitadi. Masalan: Salomlashishning sehrli ekanini, ertakda pahlavon, mard, qoʻrqmas yigitning gʻorga kirganini, gʻorda yalmogʻiz kampirga duch kelganini, unga “Assalomu-alaykum” deb salom berganini, shunda yovuz niyatli yalmogʻizning fikri oʻzgarib, unga omonlik bergani, yaʼni “Gar salom boʻlmaganda ikki yamlab bir yutardim” degan gapini, magʻzini tushuntirib beradi. Yana u baʼzi bolalarning notoʻgʻri salomlashishlari, buni oqibatida soʻz maʼnolarini tubdan oʻzgarib ketishlari haqida gapiradi. Masalan: “Assalomu alaykum” degani Ollohning yerdagi nomlaridan biri, u sizga Ollohdan sogʻliq omonlik tilayman degani “Som alaykum” degani sizga oʻlim tilayman degani. Bilasizki “Assalomu alaykum” soʻzi arab tilidan olingan boʻlib, “Som” arab tilidan tarjima qilinganda “oʻlim” degan maʼnoni anglatadi. Bular albatta oʻquvchilarga yangilik boʻladi.

Shundan so'ng o'quvchilardan mavzu yuzasidan savollari so'raladi. O'quvchilar o'zlariga notanish bo'lgan, ba'zan tanish so'zu, ma'nosi noma'lum bo'lgan so'zlar haqida so'rashadi. Masalan: "Yalmog'iz" nima degani? "Yalmog'iz" yamlab yotuvchi og'iz degan ma'noni anglatadi.

Nega insonlar yonidan turib boshqa joyga borganda ham salomlashiladi?

"Assalomu alaykum" degani faqat tinchlik, omonlik tilab qolishgina emas, yaxshi qoling, keyingi ko'rishguncha sog' bo'ling degani hamdir.

Nega salomlashganda o'ng qo'limizni ko'ksimizga qo'yamiz?

Qadimda bir otaxon yashaganlar. U kishi xushmuomala, o'z yaqinlariga juda mehribon ekanlar. Bir kuni yaqin bir odamlari safarga ketadigan bo'lib otaxon bilan hayrlashibdi. Safarda uzoq qolib ketibdi. Otaxon ancha qarib qolib ko'zlari ham xiralashib, uzoqni yaxshi ko'rmaydigan bo'lib qolibdilar. Bir kuni safarga borgan yaqinlari qaytib kelibdi. Otaxonni ko'rgani kelibdi. Otaxon uni ko'rib yuraklari shuv etibdi-yu, shunda qo'llarini yuraklari ustiga qo'yibdilar. Yuzlarida esa yaqinlarini ko'rganlaridan xursandchiliklari alomati tabassum paydo bo'libdi. Shu otaxonimizdan bizga meros bo'lib o'tgan, salomlashganda o'ng qo'lni yurak ustiga qo'yib, boshni sal egib, yuzda nim tabassum bilan salomlashish.

Ba'zi odamlar bir qo'l bilan, ba'zilari qo'sh qo'llab ko'rishadilar. Nima uchun?

Qadimda bir kishi yonidagi insonga "Men senga do'stman, dushman emasman, qo'limda senga qarshi qurol yo'q" deb qo'l uzatgan, sherigi ham xursandchilik bilan qo'l uzatgan. Shundan boshlab insonlar bir-riblari bilan qo'l berib ko'rishadilar. Bu ham juda yaqinlik, mehr-muhabbat belgisi hisoblanadi.

Ba'zan yuzdan, labdan, peshonadan o'pishib ko'rishishadi. Nima uchun?

Bu ham ko'rishish turlaridan biridir. Juda yaqinlarini, do'stlari-yu-birodarlarini uzoq vaqt ko'rmagan kishi o'sha insonni ko'rganda beixtiyor qo'choqlab, uni bag'riga bosib o'padi. Qadimda ota-bobolarimiz ko'pincha peshonadan o'pishgan. Peshonadan o'pishni xosiyatli, savob deyishgan. Hozirgi kunda o'ng va chap yuzlaridan o'pishadi. Ba'zan lablardan ham o'pishadi. O'ng va chap yuzdan o'pish mumkin, ammo labdan o'pish mumkin emas. Sababi o'pishayotganlardan birida kasallik bo'lsa, ko'rishganda ikkinchisiga yuqishi mumkin. Buni qadimda ota-bobolarimiz ham lablardan o'pishni ta'qiqlaganlar. Hozirda tibbiyot ham buni tasdiqlagan.

O'quvchilardan bukungi dars haqidagi fikr-mulohazalari tinglanadi, baholanadi, uyga vazifa beriladi. Husayn Voiz Koshifiyning "Salomlashish odobi" matnini o'qish, katta yoshdagilardan mavzuga doir ma'lumotlar to'plash.

Mavzu yuzasidan BKM

- salom so'zining to'liq ma'nolarini;
- salomlashish turlari;
- qanday hollarda salomlashmaslikni;
- ovoz chiqarib salomlashishni;
- ko'rishish turlarini bilishi;
- o'zbekona salomlashish odobiga rioya qilgan holda salomlashishni amalda qo'llay olishi kerak.

Boshlang'ich ta'limda darsliklarda berilgan allomalarning durdona fikrlari, saxiylik, to'g'rilik rostgo'ylik, sevgi va sadoqat, do'stlik, muruvvat, tinchlik va farovonlikni tarannum etuvchi rivoyatlar hamda avloddan –avlodga o'tib borayotgan an'analarni o'rganish jarayonida ijtimoiy tushunchalar singdirib borishni o'z oldimizga vazifa qilib qo'yishimiz kerak. Chunki barkamol avlod tarbiyasi ota-onalar, tarbiyachilar, o'qituvchilarning ijtimoiy burchlari ham hisoblanadi.

G.A.Isoqova
JIZZAX VPKQTMOI “Maktabgacha,
boshlang'ich va maxsus ta'lim” katta kafedrası